

**Navoiy viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ijtimoiy sug‘urta
bo‘limi tomonidan 2019 yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

MA’LUMOT

2019 yil davomida ijtimoiy sug‘urta budjeti mablag‘lari hisobidan viloyatimizdagi korxona, tashkilot va muassasalarda xizmat qilayotgan ishchi xodimlardan 1003 nafari, shundan 73 nafari bepul kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda o‘z salomatliklarini tikladilar. Ushbu maqsad uchun ijtimoiy sug‘urta mablag‘laridan 1 465747.7 ming so‘m mablag‘ sarflandi.

Jumladan, “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” davlat dasturi tadbirlari ijrosini ta’minalash maqsadida kam ta’milangan, ko‘p bolali hamda olis va chekka hududlarda, murakkab iqlim sharoitida yashovchi oilalarning ayollaridan 19 nafari, tibbiyot xodimlaridan 10 nafar, ta’lim tizimi xodimlaridan 10 nafar, ishlaydigan keksalardan 22 nafar, "Umid gulshani" sanatoriysida farzand ko‘rmagan yosh oilalarning ishlaydigan a’zolaridan 11 nafari kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda bepul sog‘lomlashtirildi.

Bundan tashqari, yozgi bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohlarida 2303 nafar, shundan 228 nafari bepul sog‘lomlashtirilib, ushbu maqsadlar uchun jami 250 581.9 ming so‘m mablag‘ sarflandi.